

## AN'ANAVIY TA'LIMNING KAMCHILIKLARI



Maqsad va kutilayotgan natijalar:

An'anaviy ta'lim va uning egizak xatoliklari haqida tushunchaga ega bo'lgan holda o'quvchilarda ilmiy izlanish va o'rganishda tegishli fan jarayoni ko'nikmalaridan foydalanishni rivojlantirishning samarali metodikalarini o'rgatish.

An'anaviy ta'lim bu –

(ko'p yillik o'qitish tizimimizdan kelib chiqib, har biriga ta'rif bering.)

	O'qituvchi boshqaradi,	ya'ni
	O'quvchi tinglovchi,	ya'ni
	Xotira talab etiladi,	ya'ni

Yaqin-yaqingacha an'anaviy ta'lim modelidan samarali foydalanib kelingan. Xo'sh. An'anaviy ta'lim o'zi qanday ta'lim?

“An'anaviy ta'lim” atamasi, avvalo, XVII asrda shakllangan o'qitishning sinfda tashkil etilishini anglatadi. An'anaviy ta'lim – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga erishish hisoblanadi.

Ko'pincha o'quvchilar  
zerikadilar, qiziqmaydilar.



An'anaviy dars mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iboratdir. Lekin an'anaviy sinf xonasida o'qituvchi doskaning oldida turadi va tinglovchilarga ma'ruzalar qiladi. Afsuski, bu o'quvchilarning qiziqishini oshirishning samarali usuli emas. Hozirgi

davrda bu usul deyarli samara bermay qo'ydi.

Singapur ta'limida **an'anaviy ta'limning bir-biriga o'xshash 2 xatosi bor deyiladi:**

- Kontent qamrovining kattaligi;
- Yozuv ishlari, qog'oz ishlarining ko'pligi.

1-xato- bu an'anaviy ta'limda o'qituvchi o'quvchilarga juda ko'p ma'lumot va bilim berishga harakat qiladi. Berilgan bilimni o'quvchilar yod olishlari talab etiladi. Bunda o'quvchilarning qiziqishlari va mavzuni qay darajada tushunganliklari hisobga olinmaydi. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar juda ko'pligi uchun o'quvchilar uning juda oz qismini o'zlashtiradilar. Oldingi mavzudagi bilimlar TO'liq o'zlashtirilmaganligi uchun keyingi mavzular tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Noan'anaviy ta'lim atamasi 2012-yilda keng qamrovda ta'lim olamiga kirgandan beri ommalashib bormoqda. Ko'plab o'qituvchilar ushbu strategiyadan foydalanadilar va ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Ushbu usulda o'qitilgan sinfdagi o'quvchilar o'z qobiliyatlari tezligida ishlashlari mumkin (bu differensial o'rganish uchun juda qulay) va o'z tengdoshlari bilan sinfda bo'lganlarida yanada interfaol va mazmunli tarzda darsga qatnashishlari mumkin.

Singapur ta'lim tizimi –  
***“Ta'lim bu - hayotga tayyorlash emas, balki hayotning o'zi”*** tamoyili asosida qurilgan.

**O'qituvchilar har qanday muvaffaqiyatli maktab islohotlarining kalitidir.**

O'quvchilar o'rganayotgan narsalar bilan haqiqiy aloqani yaratishga harakat qilish kerak. Bu ularga nima uchun siz o'rgatayotgan narsalarni bilib olishlari kerakligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O'qituvchi yangi va o'zgacha texnikalarni sinab ko'rsa, o'quvchilar ijobiy javob berishlari uchun yaxshi imkoniyat paydo bo'ladi. Darsni rejalashtirayotganda, boshqa o'qituvchi bilan hamkorlik qilishga yoki o'quvchilarni virtual maydonga olib borishga

harakat qilish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga jalb qila olgan o'rganish usuli - eng samarali o'rganish usuli hisoblanadi.

***Yaxshi me'mor bo'lish yaxshi loyihaga ega bo'lishdan ko'ra yaxshiroqdir.***

O'qituvchining ro'li	Doim qo'shimcha faktlar haqida axborot beruvchi	Hamkor ,ba'zan o'quvchi
O'quvchining ro'li	Passiv tinglovchi , doim o'quvchi	Hamkor ba'zan ekspekt
O'qitish urguni	Faktlar ,esda saqlab qitish qobiliyati	Mulohaza, izlanish ,yangilik yaratish
Bilim tushunchasi	Faktlar yig'indisi	Faktlar transformiyasi
Baholash	Normaga asoslangan	Demonstrasiyaga asoslangan
Texnologiyalar	Passiv holda yetkazish	Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
Muvaffaqiyatlar	Soni	Tushunganlik sifati

An'anaviy ta'limdagi 2-xatolik esa **yozuv ishlari, qog'oz ishlarining ko'pligidir.** Bu ta'limda o'qituvchi mavzuni tushuntirib, so'ng o'quvchilarga mavzuni yozishni yoki mavzu oxiridagi savollarga javob yozishni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirmaydi. Singapur ta'limida dars rejalarida o'quvchilar qayta-qayta yozib o'tiradigan konspektlar yoki ma'ruzalar bo'lishi shart emas. 5 E ehtiyojga asoslangan ta'limmodeli bo'yicha aksincha, o'qituvchi darsni qiziqarli hikoya yoki amaliy topshiriq bilan boshlaydi. Bu usul o'quvchilarni darsga qiziqtirishga va jalb qilishga yordam beradi. Unda oldingi bilimlarni faollashtirish va baholash mumkin. So'ng o'qituvchi umumiy tajriba taqdim etadi va o'quvchilar tajribani bir-birlariga tushuntiradilar. O'qituvchi ular fikrlarini eshitib TO'ldiradi hamda mavzu bo'yicha ma'lumotlar beradi.

### ***Samarali ta'lim tasodifan yuzaga kelmaydi.***

O'qituvchi har bir darsga alohida tayyorgarlik ko'rishi, turli strategiyalardan foydalanishi yaxshi samara beradi.

### ***O'qituvchilar me'mordirlar.***

Loyihalash (dizayn) ishlarining murakkabligiga ko'pincha yetarlicha baho berilmaydi.

Ko'p odamlar loyihalash haqida ko'p narsa bilaman deb o'ylashadi.

Ular o'ziga xoslik, noziklik bilan yaxshi loyiha yaratish uchun qanchalik ko'p bilim olish kerakligini tushunishmaydi.

Darsni qiziqarli tashkil etish uchun darsni To'g'ri rejalashtirish kerak.

### **Darsni rejalashtirishning ahamiyati**

- Hech bir me'mor chizmalarsiz binoni loyihalashtirmaydi. Hech bir avtomobil ishlab chiqaruvchisi ham loyihasiz mashina ishlab chiqarmaydi.
- Darsni rejalashtirish, xuddi chizmaga ega bo'lish kabi, amalga oshirilishi kerak bo'lgan darsning aqliy yaratilishidir.


### ***Darsni rejalashtirishning ba'zi afzalliklari quyidagilardan iborat:***

- Istalgan dars maqsadlariga mos keladigan dars rejasini yaratish;
- Dars uchun ajratilgan vaqtdan samarali foydalanish;
- Boshqa joyda ishlata olish;
- O'quvchilar uchun o'rganishni baholashni ta'minlash.

### **1. O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish**

*Agar siz ularni jalb qila olmasangiz, ularga ta'lim bera olmaysiz.*

### ***Qiziqish uyg'otish***



### ***Ilmiy jarayon ko'nikmalarini ko'rib chiqish***



## Ilmiy jarayon ko'nikmalaridan foydalanishni o'rgatish uchun besh

- 1 Biror ilmiy jarayon ko'nikmasini ayting(masalan., diqqat bilan kuzatish)
- 2 Unga misollar keltiring
- 3 Afzallik tomonlarini tushuntiring
- 4 Ushbu ko'nikmani mashq qiling
- 5 Ushbu ko'nikmani mashq qilgandan so'ng o'z fikringizni bildiring

### qadam

#### ***Tushunchani shakllantirish***

#### **2. Bilim olishni kuchaytirish (o'rganganlarni umumlashtirish)**

*Eng yaxshi materiallar o'zingiz ishlab chiqqan materiallardir*

#### ***O'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ta'minlash uchun....***

- *O'rganganlarini ko'rsatish uchun ularga mashq bering*
- *Ularni sinash uchun savollar bering*

#### **3. Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish**

*Haqiqiy dunyo ilm-fani*

***Singapur ta'limi bo'yicha ayrim topshiriqlarni ko'rib chiqamiz:***

# O‘ylab ko‘ring!

Qiziq, nima sababdan ko‘zoynagim ba‘zida “terlab”, xiralashib qoladi?



Birgalikda tadqiq etamiz!

## Ko‘zoynakda suv tomchilari qanday paydo bo‘ldi?

Sizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

• kichik ko‘zgu

1. Ko‘zguni og‘zingizga yaqin tutib turing.
2. Ko‘zguga qaragan holda og‘zingizni oching va nafas chiqaring.
3. Nimani kuzatdingiz? Kuzatilgan hodisaning sababi nima deb o‘ylaysiz?
4. Ko‘zguni bir necha minutga chetroq joyga olib qo‘ying.
5. Endi nimani kuzatdingiz? Nima uchun bunday bo‘ldi?

Birgalikda o‘rganamiz!

Bug‘lanish vaqtida nima yuz beradi?

Yomg‘irli kunda suv ko‘lmakchalari hosil bo‘ladi. Yomg‘ir tingandan so‘ng, biroz vaqt o‘tib, ular yo‘qolib qoladi. Ular nega yo‘qolib qoladi?



Ko‘lmakdagi suv atrofdan issiqlik olgach, “suv bug‘i” deb ataladigan gazsimon holatga o‘tadi. Suv bug‘i havoga ko‘tariladi. Suyuqlikning gazsimon holatga o‘tish jarayoni **bug‘lanish** deb ataladi. Bug‘lanish har qanday haroratda ro‘y beradi.





Ko‘lmaklar bug‘lanish tufayli biror vaqtdan so‘ng qurib qoladi.

Bug‘lanish vaqtida nima ro‘y berishini tushuntirish uchun zarra modelidan foydalanish mumkin.

Bug‘lanish vaqtida suyuqlik sirtidagi zarralar suyuqlikdan chiqib ketishi uchun atrofdan issiqlik oladi.


Suyuqlikning bug'lanish jarayonida issiqlik yutiladi. Bug'lanish natijasida modda suyuq holatdan gazsimon holatga o'tadi.



Kundalik hayotimizda bug'lanish jarayoniga ko'p duch kelimiz.

Soch quritgichdan foydalangan vaqtimizda sochlarimizdagi suv zarralari issiq havo orqali qiziydi va suv bug'iga aylanadi.

Ukol qilishdan oldin, terini dezinfeksiya qilish maqsadida unga spirt surtiladi. Teriga surtilgan spirt tanadan issiqlik oladi va tez bug'lanadi. Natijada terimizni sovutadi.



Sovitkichlar bo'lmagan davrlarda odamlar ichimlik suvini sirlanmagan sopol idishlarda saqlaganlar. Bunda sopol idishdagi ingichka kapilyar naychalar orqali sizib chiqqan suv bug'lanib, ko'zani va undagi suvni sovuq holda saqlagan. Odamlar issiq kunda ham muzdek suv ichishgan.



Biz ho'l kiyimlarni dorga ilib qo'ygan vaqtimizda kiyimdagi suv zarralari bug'lanib, havoga uchib chiqadi va suv bug'iga aylanadi. Natijada kiyimlarimiz quriydi.

Ba'zi kunlari kiyimlar boshqa kunlarga nisbatan tezroq qurishini sezganmisiz? Buning sababi nimada ekanini bilasizmi?



**Bug'lanish tezligiga qanday omillar ta'sir qiladi?**

Bug‘lanishning qanchalik tez yoki sekin ro‘y berishi **bug‘lanish tezligi** bilan aniqlanadi. Bug‘lanish tezligiga turli omillar ta‘sir qilishi mumkin.

Biz bug‘lanish tezligiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun tadqiqot o‘tkazishimiz mumkin. Quyidagi holatlarga e‘tibor qarating.



Kiyimlar issiq kunda tez quriydimi yoki sovuq (salqin) kundami?

Kiyimlar shamol esayotganda tez quriydimi yoki shamol bo‘lmaganidami?



Kiyimlar bir-biriga yaqin holatda ilib qo‘yilganda tez quriydimi, yoki bir-biridan uzoqroq joylashtirilgandami?


O‘qituvchi o‘quvchilar javoblarini toldirib xulosalaydi.

Bir vaqtning o‘zida faqat bitta o‘zgaruvchini o‘zgartirish mumkin. Qiymati o‘zgaradigan o‘zgaruvchiga **erkli o‘zgaruvchi** deyiladi.

Biz aynan shu erkli o‘zgaruvchining ta‘sirini tajribada o‘rganmoqchimiz.



Kiyimlar 35 °C haroratda quritilmoqda.



Kiyimlar 25 °C haroratda

Tajriba davomida erkli o‘zgaruvchining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda qiymati o‘zgaradigan kattalikka **erksiz o‘zgaruvchi** deyiladi.






Bug'lanish tezligiga atrof-muhit haroratining ta'sirini o'rganish uchun o'tkazilgan tajribada harorat erkli o'zgaruvchi hisoblanadi.



Ushbu tajribada kiyim qurishi uchun ketgan vaqt erksiz o'zgaruvchi hisoblanadi.

Ushbu tajribada aniq va ishonchli xulosaga ega bo'lishimiz uchun ba'zi omillarni o'zgarishsiz qoldirishimiz kerak. Bular **nazorat o'zgaruvchilari** deyiladi.



Ushbu tadqiqot uchun kiyim tarkibidagi suv miqdori, mato turi va kiyim quritilayotgan joy nazorat o'zgaruvchilari hisoblanadi.

O'quvchilarga topshiriq beriladi:

Bug'lanish tezligiga shamolning ta'sirini aniqlash uchun tadqiqotni qanday rejalashtirgan bo'lardingiz? Tadqiqotni rejalashtirishda quyidagilarni hisobga oling.

- Tadqiqotda qaysi o'zgaruvchilar erkli, erksiz va nazorat o'zgaruvchilari hisoblanadi?
- Tadqiqotni amalga oshirish uchun kerakli qurilma va jihozlarni qanday tanlaysiz va ulardan qay tarzda foydalanasiz?
- Tadqiqot mobaynida qanday xavf-xatarlar ro'y berish ehtimoli mavjud?

Tadqiqot xavfsiz o'tishini qanday ta'minlaysiz?

- Sizningcha, o'tkazilgan tadqiqotdan qanday xulosalar olish mumkin? Prognoz qilib ko'ring.
- Ishonchli natija olish uchun kuzatishlarni takrorlashingiz kerakmi?

Tadqiqotni ehtiyotkorlik bilan bajaring. Barcha o'lchash ishlari To'g'ri va aniq bajarilganiga ishonch hosil qiling. Kuzatishlaringizni jadval yoki diagrammaga qayd qilib boring va natijalarni sinfdoshlaringizga taqdim eting.

Bu tadqiqotda qaysi ilmiy tadqiqot usuli qo'llandi? Ushbu ilmiy tadqiqot usulining qanday xususiyatlari bor?



Yuvinish xonasidagi issiq suv bug'i ko'zguning sovuq sirti bilan ta'sirlashadi. Buning natijasida suv bug'i o'z issiqligini yo'qotib, suv tomchilariga aylanadi.



Bug'ning (gazning) suyuqlikka aylanish jarayoni **kondensatsiya** deyiladi. Ichidagi suvi muzlagan shisha idishni xonadagi stol ustiga qo'ying. Shisha idish sirtiga biror muddat qarab turing, shunda shisha sirtida suv tomchilari paydo bo'lganini ko'rasiz. Shisha idish sirtida suv tomchilari paydo bo'lishini kuzating. Suv tomchilari qanday paydo bo'ldi?



Havoda erkin harakatlanayotgan suv bug'i zarralari shishaning sovuq sirtiga tekkanda o'z issiqligini yo'qotadi va harakati sekinlashadi. Bunday zarralar shisha sirtida erkin harakat qilmasdan, bir-birining atrofida qila oladigan darajagacha sekinlashadi. Shunday qilib, suv bug'i shisha sirtida suv tomchilariga aylanadi.



Ko'zoynak va ko'zgu sirtidagi mayda suv tomchilaridan hosil bo'lgan xiralashish, suv bug'i kondensatsiyalanishidan hosil bo'ladi.

Qaynayotgan choynak jo'mragidan chiqayotgan bug'ni ko'rganmisiz? Bug' nima sababdan hosil bo'ldi? Issiq suv bug'i jo'mrak atrofidagi nisbatan sovuqroq havo bilan ta'sirlashib, o'z issiqligini yo'qotadi va mayda suv tomchilariga aylanadi. Ushbu mayda tomchilar bug' hosil qiladi.



?

Kundalik hayotingizdan kondensatsiyaga misollar keltiring.

### Bilimingizni sinab ko'ring!

Bug'lanish va kondensatsiya jarayonlarida nima yuz berishini zarra modelidan foydalanib izohlang.



### Quyidagi qaysi ko'nikmalarni egalladingiz?

*Javoblarni daftaringizga belgilang.*

1. Bug'lanish va kondensatsiya jarayonlarini tavsiflay olaman.
2. Bug'lanish va kondensatsiya jarayonlarini tushuntirish uchun zarra modelidan foydalana olaman.
3. Ishonchli natija olinadigan tajribani rejalashtirib, tajribaga tegishli bo'lgan uch xil o'zgaruvchini aniqlay olaman.
4. Tadqiqot o'tkazish uchun kerakli qurilma va jihozlarni tanlay olaman hamda ulardan To'g'ri foydalana olaman.
5. Amaliy ishni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarni va ularni kamaytirish yo'llarini tavsiflay olaman.
6. Prognoz qilishda bilim va tushunchalarimdan foydalana olaman.
7. Ishonchli natijalarni olish uchun kuzatishlarni takrorlash kerakligini hal qila olaman.
8. Amaliy ishni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilaman.
9. Tajribani o'tkazishda o'lchash ishlarini To'g'ri va aniq bajara olaman.
10. Kuzatish va tajribalarim natijalarini taqdim qilish uchun jadval va grafiklar tuza olaman.
11. Turli tadqiqot metodlarining o'ziga xos jihatlarini o'rgana olaman.
12. Kundalik hayotda ilm-fan yutuqlaridan foydalanishni tavsiflay olaman.



## **Singapur ta'limini dunyodagi eng yaxshi ta'limga aylantirgan 6 ta omil**

Singapur Osiyoning muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlaridan biridir. Mamlakat rivojlanmagan holatdan o'zini-o'zi olib chiqib, iqtisodiyoti rivojlangan davlatga aylandi. Ushbu sanoat inqilobi paytida mamlakatning ta'lim tizimi ham chetda qolmadi. Bugungi kunda Singapur maktab tizimi dunyodagi eng yaxshi maktab tizimi hisoblanadi.

Ushbu muvaffaqiyatning sirini Singapur iqtisodiyotining markazida ta'lim turganligi bilan izohlash mumkin. Xalqaro baholash dasturi PISA ga ko'ra, eng yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar singapurlik hisoblanadi. Bundan tashqari, Singapur matematika va tabiiy fanlar bo'yicha eng yuqori reytingga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Xo'sh, nima uchun Singapur maktab tizimi global miqyosda eng yaxshi tizim hisoblanadi?

### **1. Ta'lim iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi**

Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgandan so'ng, Singapur Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning eng boy mamlakatlaridan o'zib, dunyodagi yetakchi o'rinni egalladi. Chunki davlat ta'limni ekotizim(jamiyat bilan birgalikda o'zaro ta'sir o'tkazadigan muhit, ekotizimda tarkibiy qismlari o'zaro qonuniy bog'langan) deb biladi. Demak, ekotizim rivojlanishi uchun maktab tizimi birinchi o'rinda turishi yoki aksincha bo'lishi kerak. Shunday qilib, islohot samarali bo'lishi uchun odamlar ham o'zgarishlarga javob berishlari, yuqoridan pastga qarab butun tizimni isloh qilish kerak.

### **2. Ta'lim o'quv dasturi muayyan fanlarni o'qitishga va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga qaratilgan.**

Singapurning maktab ta'lim tizimi loyiha ishi yaratish va ijodiy fikrlashga undaydi. Natijada, mashg'ulotlar o'quvchilarni muayyan mavzular bo'yicha muammolarni hal qilish qobiliyatlari va bilimlari bilan yondashishlariga qaratilgan. O'quv dasturining maqsadi o'quvchilarga real dunyoda muammolarni hal qilishga yordam beradigan amaliy bilim va ko'nikmalarni berishdan iboratdir.

Singapur hukumati ko'proq o'quvchilarning amaliy faoliyati va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun maktab ta'lim tizimini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadi va takomillashtiradi.

### **3. O'tkazuvchanlik madaniyati**

Singapurda ota-onalar farzandlarining ta'lim olishida asosiy rol o'ynaydilar. Va yana barcha bolalar bir xil darajada aqlli deb hisoblanadi. Buning ma'nosi shundaki, singapurlik ota-onalar uchun meros bo'lib o'tgan qobiliyatlardan ko'ra, bolaning o'z

harakati ko'proq maqталadi. O'quvchilar ham o'zlarining muvaffaqiyati va strategik fikrlashlarini amaliyotda qo'llay olish bilan ota-onalariga javob qaytarishadi.

Shunday qilib, dars soatlarida yoki ta'til paytida ota onalar farzandlarini qo'shimcha darslarga yozdirlaslar ham o'qishda muvaffaqiyatga erishish butunlay bolaning vazifasi hisoblanadi.

#### **4. Hisob beriladigan tizimlar**

Har qanday birinchi darajali maktab tizimi yaxshi yetakchiga ega bo'lishi va uni professional qobiliyatli jamoa qo'llab-quvvatlashi kerak. Singapur ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bu o'qituvchilardir. Singapur o'qituvchilariga sezilarli darajada sarmoya ajratdi, bu esa o'qituvchilikka eng yaxshi bitiruvchilarini jalb qildi va o'qituvchilik kasbining mavqeyi va obro'sini oshirdi. Mamlakatdagi barcha o'qituvchilarni tayyorlaydigan yagona institut bo'lgan Milliy ta'lim instituti (NIE) yuqori sifatli ishchi guruhini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Institut dars sifat nazorati va barcha bitiruvchi yangi o'qituvchilar 21 asr raqamli ta'lim asridagi sinf xonasida ishlay olishlariga kafolat beradi. Institut tinimsiz izlanishda va o'zining "21-asr uchun o'qituvchilar" o'qitish modeliga asos solgan.

#### **5. Ta'limning maqsadlari**

Singapur maktablari tizimining o'ziga xos xususiyatlari orasida ta'lim aniq ifoda etilishi va ta'limning kerakli natijalarini aniqlash ajralib turadi. Ushbu asos Milliy o'quv dasturlarini yaratish, o'qituvchilarning yuqori darajadagi tayyorgarligini va ularning pedagogik malakasini oshirishni ta'minlashni osonlashtiradi, milliy ta'lim nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda konsepsiya va amalga oshirish o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

#### **6. Differensiyalashtirilgan ta'lim bosqichlari**

Singapurning ta'lim tizimi o'quvchilarga turli xil o'qitish profillaridan foydalangan holda turli xil qarashlar va imtiyozlarni taqdim etishga mo'ljallangan. Singapurning amaldagi vaziri Tarman Shanmugaratnamning ta'kidlashicha, ta'lim "mukammallikni saqlab qolish va barcha yoshlarni o'z ilhomlarini topishga va iloji boricha ko'tarilishga" undashga qaratilgan.

Singapurning ta'lim tizimi dunyo miqyosidagi ta'lim yulduzidir. Bu avvalambor, mamlakatning ta'limga birinchi darajada qarashi va aholisining madaniyati tufayli. Dunyo hali Singapur ta'lim tizimidan ta'lim sohasini takomillashtirish uchun ko'p narsalarni o'rganishi mumkin.